

Aziza Rahimjonova,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
azizarahimjonova@gmail.com

OTM TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya: Bugungi kunda OTMlarda mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan mustaqil ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqolada OTMlarda bo'lajak mutahasislarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ish, mustaqil ishlash kompetensiya, mustaqil shaxs.

Aziza Rahimjonova,
PhD Student of Namangan State University
azizarahimjonova@gmail.com

THE ISSUES OF ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATION AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: Today, proper organization of independent education in HEIs is one of the urgent issues. The main goal of organizing independent education of students is to strengthen and enrich acquired knowledge in science, improve practical skills and qualifications, work independently with information, self-development, cognitive, creative, cooperative work competencies. This article describes the theoretical issues of organizing independent education in the training of future specialists in HEIs.

Key words: independent education, independent work, independent work competence, independent person.

Азиза Рахимжонова,
Докторант Наманганского государственного университета
azizarahimjonova@gmail.com

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В ВУЗАХ

Аннотация: Сегодня правильная организация самостоятельного образования в вузах является одним из актуальных вопросов. Основная цель

организации самостоятельного обучения обучающихся – закрепить и обогатить полученные знания по науке, усовершенствовать практические навыки и квалификацию, самостоятельно работать с информационными, саморазвитыми, познавательными, творческими, коллективными трудовыми компетенциями. В данной статье рассмотрены теоретические вопросы организации самостоятельного образования при подготовке будущих специалистов в вузах.

Ключевые слова: самостоятельное образование, самостоятельная работа, самостоятельная трудовая компетентность, самостоятельная личность.

Kirish

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. ularga, ta'lim yuksalishda "Talim to'g'risida" gi qonunining yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan qaror "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga muvofiq 2030 ta rivojlantirish loyihasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning mustahkam yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat yangi rivojlanishga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyasiga barqaror holda, ijtimoiy va iqtisodiyotni rivojlantirishga strategik masalalarga alohida ahamiyat berilgan.

Jumladan, Konsepsiyada "OTMlarda mustaqil ta'lim soatlari ulushini olish, talabalarda mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini oshirish, o'quv jarayonida mustaqil ishlash kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga kuchli ilg'or pedagogik texnologiya, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz tekshirish orqali mutaxassislarining kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga foydalanish mumkinligi ta'kidlangan.

Adabiyotlar tahlili

OTM talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan mustaqil ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

OTM talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantirish olish va uni hal etishning maqbul yo'larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

- ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga etkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarining asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Shuning uchun talabalarining mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'otlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma

berish oliy ta'lim muassasaning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim - o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mustaqil ta'lim - olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

Mustaqil ish - o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir [1]. Ta'bir joiz bo'lsa, bo'lajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakat-faoliyat ularning asosini tashkil etadi. Talaba mustaqil fikri tug'ilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xorijiy pedagogik adabiyotlarda mustaqil ta'lim tushunchasi turlicha talqin etiladi: AQShda «mustaqil ta'lim» (independent work); fransuz va ingliz tilidagi adabiyotlarda «individual ishlash» (self study, individual work); Germaniyada «bilvosita o'qitish» iborasi; Avstriya va Shveytsariya «sekin ishlash» atamasi mustaqil ishlash vaqtida hukm suradigan jimlik va yakka mustaqil ishlash mazmunini ifodalaydi.

Xorijiy adabiyotlarda mustaqil ta'lim tushunchasi o'rnida “autonomous” (avtonomlik), “autonomous learning” (avtonom o'rganish), “learner autonomy” (o'quvchi avtonomiyasi) kabi tushunchalar keng ishlatiladi. Avto (autos) – so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, “o'zim”, “o'zim yordamim bilan” degan ma'lumotlarni anglatadi. Avtonom o'rganish mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash hamda mustaqil o'qish uchun qilishi kerak degan tamoyilini anglatadi

[5; 36].

Mustaqil ta'lim – pedagogik muammoning taklif etilgan yechimining mohiyatiga kirib borishga til o'rganishning aniq muammolarini konstruktiv va samarali hal qilishga imkon beradigan usul va uslublarning mavjudligi, mustaqil ta'lim bo'yicha ishlarni rejalashtirish, kerakli manbalarni topish, ma'lumotlarni tuzatish va tashkil qilish, amaliy pedagogik tajribadan foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi [4; 10].

“Mustaqil ta'lim kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning o'z tashabbusi bilan amalga oshiradigan mustaqil faoliyatdir. Mustaqil ta'lim fan o'qituvchisi tomonidan talabaning (mutaxassisning) mustaqil ta'lim olishiga nisbatan ma'lum darajada tizimli va izchil tashkil etilgan harakatlarga asoslanadi” [5;15]. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ta'lim faoliyati pedagog tomonidan boshqariladi, topshiriqlar beriladi, maslahatlar tashkil etiladi va bajarilishi nazorat qilinadi. Mustaqil ta'lim, mustaqil ish o'quvchilarning zarur bilimlarni o'zlashtiradigan, malakalarini shakllantiradigan ta'lim shaklidir, talabalar mustaqil fikrlashni o'rganadi, o'ziga xos intellektual va tarbiyaviy faoliyatini shakllantiradi, subyektning ichki motivatsiyasi, o'zini o'zi amalga oshiradigan va tuzatuvchi harakati hisoblanadi" [3; 13].

Mustaqil ta'limga berilgan ushbu ta'riflarga tayanib, bizning nazarimizda, mustaqil ta'lim – auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarishga mo'ljallangan tizimli faoliyat (harakatlar) bo'lib, talabalar ushbu jarayonda bilim, amaliy ko'nikma, malakalarni rivojlantiradi, qo'shimcha o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtiradi, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rganadi.

Tahlillar va natijalar

OTMlarda talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etiladi:

- auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish;
- auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;
- fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish.

Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish;
- ko'p so'raladigan savollar (FAQ-frequently asked questions) orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;
- forumlarda ishtirok etish – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;
- web-kvest – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash;
- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- sinov (zachyot)ga tayyorgarlik ko'rish;
- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma'ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
- multimedialli taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;

- darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash;

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlar berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabaning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak. Masalan, ingliz tili o'qitish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va mustaqil fikrlash talab qilinadi. Bunda o'qituvchi bilim beruvchi va baholovchi sifatida emas, balki fasilitator (inglizcha facilitate so'zidan olingan bo'lib, biror bir jarayonning borishiga yaxshi ta'sir etuvchi va unga mos shart-sharoitlar yaratib beruvchi) sifatida namoyon bo'ladi. Talabadan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olish talab etiladi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, OTMlarda mustaqil ta'limni amalga oshirish, talabalarni mustaqil ravishda til o'rganishda o'z ustida ishlashga o'rgatishda tizimli ishlarni amalga oshirish, mustaqil ravishda hayotda o'z o'rniga ega va ijtimoiy faol bo'lgan, istiqbolli vazifalarni topish va hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan malakali kadrlarni shakllantirish uchun asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-aprel 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida" qarori. Lex.uz
2. L.Zaripov, N.Xayitov, Z.Tohirov. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish: metodik qo'llanma. – Toshkent: "Sano-standart" 2023. 32 b.
3. Aripova, Sh. (2022). Methodological basis of development of independent learning competence of students in teaching English/ PhD thesis. p. 13.

4. Iminakhunova, I. (2021). Theoretical foundations of the development of independent study processes of future specialists / PhD Thesis. p.12.
5. Sarimsakova , D. (2022). Technology of developing sociolinguistic competence of students in English during independent study/ PhD Thesis. p.15.